

O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATIDA DOIRA USULLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UYG'UNLIK MASALALARI



Zakirov Nodir Baxtiyarovich,

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Doira ijrochiligi o'zining boy ritmik imkoniyatlari va usullarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Cholg'uning ritm hosil qilishdagi elastikligi, zarb nozikliklari hamda ijro texnikasi tinglovchida alohida musiqiy taassurot uyg'otadi. Ayniqsa marosim va udumlarda doiraning tutgan o'rni o'ziga xos bo'lib, u karnay-surnay ansamblining muhim ritmik tayanchi vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqa san'atida doira usullarining transformatsiyasi va uyg'unlik masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: milliy musiqa san'ati, doira, marosim, xarakter, san'at, ritmik, dinamik, akustik, zarbli cholg'u.

Аннотация: Исполнение дойры отличается богатыми ритмическими возможностями и разнообразием приемов. Эластичность инструмента в создании ритма, тонкость ударов и техника исполнения вызывают у слушателя особое музыкальное впечатление. Особенно своеобразна роль дойры в обрядах и обычаях, она выполняет функцию важной ритмической опоры ансамбля карная-сурная. В данной статье научно проанализированы вопросы трансформации и гармонии дойровых ритмов в узбекском национальном музыкальном искусстве.

Ключевые слова: национальное музыкальное искусство, дойра, ритуал, характер, искусство, ритмический, динамический, акустический, ударный инструмент.

Abstract: Doira performance is distinguished by its rich rhythmic possibilities and diverse techniques. The instrument's elasticity in creating rhythm, the subtlety of the beats, and the technique of performance evoke a special musical impression in the listener. The role of the doira in rituals and customs is especially unique, as it serves as an important rhythmic support for the karnay-surnay ensemble. This article scientifically analyzes the transformation and harmony of doira rhythms in Uzbek national musical art.

Keywords: national musical art, doira, ritual, character, art, rhythmic, dynamic, acoustic, percussion instrument.

Doira o'zbek xalqining sevimli cholg'ularidan hisoblanadi. Bu cholg'uning sadolariga, usullarining jozibasiga maftun bo'lmagan inson yurtimizda topilmasa kerak. Doira cholg'usi xalq orasida childirma, chirmanda, daf, duf, dap kabi nomlari bilan ham ataladi. Bu cholg'u ijrochilarini esa mahalliy xalq doirachi, doirakash, childirmachi, chirmandachi, chirmandakash, Buxoroda doiradast deb atashadi.

Doira cholg'usining tarixi insoniyatning eng qadimiy madaniy qatlamlariga borib taqaladi. Arxeologik izlanishlar, jumladan, Farg'ona vodiysidagi Saymalitosh g'orlaridan topilgan petrogliflar bunga yorqin misoldir. Ushbu tasvirlarda aylanavari shakldagi zarbli cholg'ularni chalib

turgan sozandalar aniq ko‘rinadi. Shuningdek, qadimgi Parfiya davriga mansub Niso shahri yodgorliklarida topilgan haykaltaroshlik namunalari doira ushlab turgan ayollar tasvirlari bu cholg‘uning keng qo‘llanganini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar bu san‘at namunalari eramizdan avvalgi II ming yillikda yaratilganini qayd etadilar.

Demak, doira nafaqat xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi, balki Markaziy Osiyo hududida shakllangan musiqa va ritm madaniyatining eng qadimiy qatlamlarini o‘zida mujassam etgan noyob san‘at asbobidir. Uning usullari, ritmik tuzilishi va ijrochilik maktablari esa o‘zbek musiqa merosining rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xalq cholg‘ulari orasida eng qadimiy va eng noyob turlaridan biri bo‘lgan doira o‘zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati va marosimiy an‘analariga chuqur singib ketgan bo‘lib, u insonlar hayotining ajralmas madaniy unsurlaridan biri sifatida shakllangan. Doira ijrochiligi mohiyatan og‘zaki-professional ijod an‘analari bilan uyg‘un bo‘lib, uning ijro jarayoni ko‘plab jihatlar bilan baxshilar aytadigan dostonchilik san‘atini eslatadi. Buning asosiy sababi — ijroda improvizatsiyaning keng o‘rin tutishi, sozandaning lahza va muhitga mos ravishda ritmik usullarni erkin va ijodkorona tanlashi bilan bog‘liqdir.

Doira ijrochiligi o‘zining boy ritmik imkoniyatlari va usullarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Cholg‘uning ritm hosil qilishdagi elastikligi, zarb nozikliklari hamda ijro texnikasi tinglovchida alohida musiqiy taassurot uyg‘otadi. Ayniqsa marosim va udumlarda doiraning tutgan o‘rni o‘ziga xos bo‘lib, u karnay-surnay ansamblining muhim ritmik tayanchi vazifasini bajaradi.

O‘zbek xalqining to‘y marosimlari misolida doira usullarining funksional xilma-xilligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, yangi farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq beshik to‘yida ijro etiladigan usullar odatda jo‘shqin, serharakat va mardona xarakterga ega bo‘ladi. Aksincha, nikoh marosimida, xususan, qiz uzatilayotgan paytdagi yor-yor yoki o‘lanlarda doira ohanglari ma‘yus, muloyim va hissiy-estetik jihatdan chuqurroq talqinda yangraydi. Bu esa doiraning ritmik imkoniyatlari faqat musiqiy jarayonga emas, balki marosimning ruhiy-emotsional mazmuniga ham bevosita ta‘sir o‘tkazishini ko‘rsatadi.

Shu bois doira o‘zbek musiqiy merosida nafaqat zarbli cholg‘u sifatida, balki jamiyatning turmush madaniyati, ijtimoiy marosimlari va musiqiy-estetik qadriyatlarini ifodalovchi muhim san‘at unsuri sifatida o‘rganilishi lozim bo‘lgan bebaho madaniy meros sanaladi.

Doira ritmik, dinamik va akustik imkoniyatlari nihoyatda boy bo‘lgan zarbli cholg‘ular sirasiga kiradi. Uning ovoz hosil qilish mexanizmi juda murakkab bo‘lib, ijro jarayonida ikkala qo‘lning barmoqlari, kaft qismi va shapaloq yordamida membranaga turlicha zarb berilishi natijasida xilma-xil tembrlar yuzaga keladi. Zarbning kuchi, tezligi, barmoqning tekis yoki uchi bilan urilishi, shuningdek, membrananing taranglik darajasi — bularning barchasi doiraning o‘ziga xos ovoz palitrasini belgilaydi.

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, avvalgi davrlarda doiralar hozirgidek qizdirilmagan holatda, ya‘ni xalq orasida “zili bom” nomi bilan mashhur bo‘lgan tabiiy tovushda ijro etilgan. XX asrning 1970–1980-yillaridan boshlab esa ijrochilik amaliyotida yangi bosqich yuzaga keldi — doiralarni olovda qizdirish an‘anasi shakllandi. Bu usul membrananing tarangligini oshirib, cholg‘uning jarangdor, yorqin va aniq tembr bilan yangrashiga xizmat qildi. Keyinchalik doirani qizdirish jarayonida maxsus yorug‘lik-projektorlarning qo‘llanilishi ijrochilik texnologiyasiga qulaylik kiritdi va bu amaliyot hozirgi kungacha doirachilar tomonidan keng qo‘llanib kelmoqda.

Doira ijrochiligida yillar davomida shakllangan tajribaning yana bir muhim jihati — temir noxunlardan foydalanish amaliyotidir. O‘tgan asrning ikkinchi yarmigacha mohir doirachilar tovushni yanada jarangdor qilish maqsadida ikkala qo‘lning to‘rtinchi barmoqlariga maxsus temirdan tayyorlangan noxun taqib ijro etishgan. Temir noxun zarbning metallik tembrini

kuchaytirib, ijroning akustik tafovutlarini yanada boyitgan. Biroq vaqt o'tishi bilan doirachilarning barmoqlar yordamida ham xuddi shunday jarangdorlikni hosil qilish mahorati shakllangani uchun bu an'ana asta-sekin amaliyotdan chiqib ketdi.

Mazkur tarixiy o'zgarishlar doira cholg'usining nafaqat shakl va texnik taraqqiyotini, balki ijrochilik maktablari rivoji, akustik didning o'zgarishi, zamonaviy talqin va ehtiyojlarning shakllanishini ham yaqqol aks ettiradi. Doira bugun ham o'zining qadimiy urf-odatlaridan uzilmagan holda, zamonaviy sahna ijrochiligiga moslashib, o'zbek musiqiy merosining eng yorqin timsollaridan biri bo'lib qolmoqda. Doira cholg'usi nafaqat kuchli ruhiy, balki ilohiy taassurotlarni qo'zg'ashga qodir. Shu bilan bir qatorda cholg'u musiqiy (estetik) va nomusiqiy (noestetik) xususiyatlarga ega bo'lib, u orqali ruhiy xastaliklarni davolaganlar. Tarixiy manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, doira cholg'usi o'tmishda baxshi ayollar orasida keng qo'llanilgan. Ular insonlarni davolashda, diniy marosimlarda doira cholg'usidan foydalanganlar. Bunday xususiyatlar shamanlar faoliyatida ham kuzatilgan. Ular ham inson tanasidan yovuz ruhlarni chiqarish, kasallikni davolash, zikr tushish kabi turli marosimlarida doira chalganlar. Doiraning yangrashi o'tkazilayotgan marosim ruhini kuchaytirishga, ekstaz (jazavaga tushish) holatiga yo'naltirishga xizmat qilgan. O'sha davrlardagi ayrim marosimlar bugungi kunda ham chekka vohalarda o'z kuchini saqlab qolgan.

Dunyo xalqlarida doira cholg'usiga o'xshash urma zarbli cholg'ular ko'p. Lekin doirada ijro etiladigan xilma-xil usullar, ijrodagi texnik imkoniyatlarning o'ziga xosligi bilan boshqa xalqlar urma zarbli cholg'ularidan farq qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, birgina doira cholg'usining o'zida turli xalqlar musiqa amaliyotida qo'llaniluvchi usullarni ijro etish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda doirachilarning ansambl shaklida, yoki doira cholg'usi bilan bir necha urma zarbli cholg'ularni birgalikda qo'shib ijro etish shakllari rivoj topdi. Doirada ijro etiladigan rang-barang usullar xorijiy mamlakat xalqlarini hayratda qoldirmoqda.

Doira san'atining imkoniyatlarini kengroq ochish maqsadida, ustozlarimizdan meros bo'lgan an'anaviy raqs usullari bilan bir qatorda o'zimning ijodiy izlanishlarim davomida kashf etgan yangi ritmik yo'llar ham doirachilar ansambli uchun mo'ljallangan asarlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Ushbu asarlarning aksariyati shogirdlarim bilan birgalikda ovoz yozish studiyalarida ijro etilib, zamonaviy texnologiyalar yordamida tarix sahifalariga muhrlandi. Bu nafaqat ijodiy merosni mustahkamlash, balki doira ijrochiligi taraqqiyotida yangi bosqichlarni belgilashga xizmat qildi.

Oradan vaqt o'tib, mazkur asarlarni nota yozuviga tushirish g'oyasi tug'ildi. Notaga solish jarayoni orqali nafaqat doirachilar ansamblining ijro dasturlarini boyitish, balki yosh avlod ijrochilarining texnik mahoratini oshirish, yangi o'quv-uslubiy manbalar yaratish ham ko'zlangan maqsadlardan biri edi. Zotan, nota shaklida mustahkamlangan har bir usul kelajak avlod uchun aniq metodik asos va ijrochilik maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Doira — o'zbek milliy musiqa madaniyatining eng qadimiy qatlamlariga mansub urma-zarbli cholg'u bo'lib, u yurtimiz san'atining deyarli barcha yo'nalishlarida muhim o'rin tutadi. Mazkur cholg'u karnay-surnay jo'rligida marosimiy jarayonlarga ritmik asos yaratadi, mumtoz musiqa an'analari tasviriy ritmning nozik qirralarini ochadi, xalq cholg'ulari ansambllari va orkestr jamoalari tarkibida esa zarbiy uyg'unlikning tayanch bo'g'ini vazifasini bajaradi. Shuningdek, yakka va guruhli raqs ijrochiligida doira zarblari sahnaviy harakatning mazmunini kuchaytirib, kompozitsion dinamikani ta'minlaydi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida doira usullarining ko'plab namunalari vujudga kelgan bo'lib, ular davrning ijtimoiy-madaniy muhitiga mos ravishda sayqallanib, takomillashib borgan. Har bir yangi avlod ushbu usullarga o'z dunyoqarashi, san'at tamoyillari va estetik didi asosida yangi

ranglar qo'shgan. Natijada o'ziga xos, rang-barang, murakkab va mahorat talab qiluvchi usullar majmuasi shakllandi.

Mazkur jarayon doira san'atining faqatgina marosimiy yoki hamroh cholg'u sifatida emas, balki mustaqil ijod manbai sifatida ham boyib borayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda doiraning ritmik imkoniyatlari, ijrochilik texnikasi va usullar tizimi nafaqat amaliy ijrochilikda, balki ilmiy tadqiqotlarda ham alohida qiziqish uyg'otmoqda. Shu bois yaratilayotgan yangi asarlar va ularning notaga tushirilishi milliy musiqiy merosimizning boyishiga, doira san'ati maktablarining yanada pishib yetilishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida bir qancha doira usullari qo'llaniladi.

Xalq musiqa ijrochilik amaliyotida qo'llaniluvchi usullarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- oddiy usullar: ijro jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan, asosan, an'anaviy marosimlarda, qo'shiq va laparlarda qo'llaniladi.

- maqsadli usullar: ommani jalb etish, to'plash, diqqatni qaratish kabi muayyan ma'noga ega bo'lgan chaqiriq usullari;

- murakkab usullar: ya'ni xalq mumtoz musiqa ijodiyotida qo'llaniladigan usullar. Yuqorida ta'rifini keltirganimiz, unchalik murakkab bo'lmagan oddiy usullar har bir xalqning milliy an'alaridan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan. "Yor-yor", "Nog'ora bayot" kabilar shular jumlasidandir.

Maqsadli usullar ommaviy bayramlarda, xalq sayllarida tomoshalar boshlanishidan oldin xalq e'tiborini jalb qilish, ularni bir joyga yig'ish maqsadida ijro etilgan.

Murakkab usullar esa maqom san'atida qo'llaniladi. Mumtoz musiqamizda ijro etiluvchi usullarning barchasi mukammal bo'lgani uchun ularni murakkab usullar turkumiga kiritishni lozim topdik.

O'tmishda har bir maqom aytuvchi hofiz o'z ijodiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida maqom usullarini doira ritmlari orqali mukammal o'zlashtirgan. Chunki "Shashmaqom" tizimida har bir kuy yo'li o'ziga xos ritmik tuzilishga ega bo'lib, doirachilar aynan shu ritmik namunalar asosida ijroga kirishgan. Doira ijrochisi uchun maqom usullarining bilimi nafaqat texnik zarurat, balki badiiy talqinning muhim sharti hisoblangan. Natijada doira nafaqat ritmik tayanch sifatida, balki maqomning ichki nafasini, zarbiy haroratini va ruhiy ohangini aks ettiruvchi muhim musiqa vositasi sifatida shakllangan.

Doira cholg'usi Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, mehnat faoliyati va madaniy an'alariga shu darajada singib ketganki, uni mintaqa musiqiy tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin. Qadimdan cholg'ular jo'rligida ijro etilgan qo'shiqlar, laparlar va kuylar xalq hayotining barcha marosimlari — quvonchu tashvish, mehnatu bayramlarning markazida turib kelgan. Xususan, katta bayramlar va ommaviy tadbirlar xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalarsiz tasavvur etilmagan.

Mavsumiy-marosimiy an'alar o'zining musiqiy ifodasi bilan ham ajralib turgan. "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi qadimiy xalq bayramlari tabiatning uyg'onishi, mehnat mavsumining boshlanishi yoki yakunlanishi bilan bog'liq bo'lib, bunday tantanalarda karnay-surnay, doira va nog'ora kabi urma-zarbli cholg'ular muhim o'rin egallagan. Ushbu cholg'ularning birgalikdagi jarangi bayramning umumiy kayfiyatini belgilab, xalqning birlashuvi, quvonchining musiqiy ifodasi sifatida xizmat qilgan.

O'rta asr musiqa ijrochiligidagi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha cholg'uda ijro eta olganlar, balki o'zlari ham musiqa bastalay boshlaganlar.

Sharq musiqashunos olimlarining nazariy qarashlari asrlar davomida shakllanib, boy ijrochilik amaliyoti, ustoz–shogird an’analari hamda musiqiy tajribalar bilan chambarchas uyg’unlashgan holda rivojlangan. Ular yaratgan risolalar nafaqat o‘z davrining ilmiy-ma’rifiy ehtiyojlariga javob bergan, balki doira usullarining o‘zbek milliy musiqasi taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini yuksak baholagan manbalar sifatida bugungi kungacha ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari doira usullarini ritmik tizim sifatida emas, balki musiqaning badiiy mazmunini ochuvchi, kuy va qo‘shiqlarning ichki ruhini ifodalovchi muhim ijrochilik vositasi sifatida talqin etganlari bilan alohida ajralib turadi.

Demak, doira faqat musiqiy cholg‘u emas, balki Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotida ritm, harorat, joziba va birlik timsoli bo‘lib, asrlar davomida marosimiy san’atning ajralmas qismi sifatida yashab kelmoqda.

Foydalangan adabiyot ro`yxati:

1. Islomov D. “Ustozlardan doira saboqlari” – Toshkent: “Musika” nashriyoti, 2014-y.
2. Islomov D. “Maxsus cholg‘u” – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016-y.
3. Islomov D. “Sharq musiqasi tarixidan” monografiya – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017-y.
4. Jomiy A. “Risoi musiqasi” Toshkent: O‘zdavnashr 1960-y.